



БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ

(энг қадимги замонлардан ҳозиргача)
мавзусидаги халқаро миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

2023 йил-10 июнь

Бухоро - 2023

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ

(энг қадимги замонлардан хозиргача)

мавзусидаги халқаро миқёсидағи илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

2023 йил – 10 июнь

Бухоро - 2023

~ 2 ~

Илмий-амалий анжуман Бухоро тарихи, манбашунослиги, тарихшунослиги, археологияси, этнографияси, нумизматикаси, шаҳарсозлиги, маданият ва санъати соҳаларида амалга оширилаётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғлиқлигини кучайтириш мақсадида Бухоро давлат университетида **2023 йил 10 июнь** куни “**БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ**” (ЭНГ ҚАДИМГИ ЗАМОНЛАРДАН ҲОЗИРГИ ДАВРГАЧА) мавзусидаги ҳалқаро миқёсида илмий-амалий конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди.

Ушбу тўплам кенг илмий жамоатчилик, Бухоро тарихи билан қизиқувчилар, тарихчилар, магистрантлар ва талаба ёшларга мўлжалланган

Масъул муҳаррир:

БухДУ профессори, тарих фанлари доктори

Ҳ.Ҳ.Тўраев

Таҳир хайъати ва аъзолари:

Бухоро давлат университети ректори,	О.Ҳ.Хамидов
иктисод фанлари доктори, профессор	
Илмий ишлар ва инноватциялар	
бўйича проректори, физ-мат ф.д (DSc), проф	Т.Ҳ.Расулов
Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири	Ф.У.Темиров
Бухоро давлат университети профессори,	
тарих фанлари доктори	И.С.Иноятов
Бухоро давлат университети профессори,	
тарих фанлари доктори	Ш.А.Ҳайитов
тарих фанлари номзоди, доцент	М.Б.Қурбонова
тарих фанлари номзоди, доцент	М.И.Ниязова
тарих фанлари номзоди, доцент	Ф.Ҳ.Бобоҷонова
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)	И.Н.Наимов
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)	А.Ҳ.Болтаев
Археология ва Бухоро тарихи кафедраси	
катта ўқитувчиси	О.И.Ражабов
Археология ва Бухоро тарихи	
кафедраси ўқитувчиси	Ш.Ў.Носиров

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:

Темиров Ф.У. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири
Умаров Б.Б. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси
Носиров Ш.Ў – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Мазкур тўплам Бухоро давлат университети Илмий Кенгашининг 2023 йил 15 майдаги 7 – сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган.

Илмий-амалий анжуман материалларида ёритилган тарихий жараёнлар, маълумотлар, чиқарилган холосалар, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг ўзлари масъул ва жавобгар

ёзишмалар олиб бориб махфий маълумотларни етказиб турганлик, қуроляроғ билан таъминлаганлик, молиявий кўмак берганликда айбланиб, отишга хукм қилинди¹³⁰⁷.

1922 йил 17 июлда ташкилотнинг ушбу 10 нафар аъзоси Бухоро шаҳри деворлари олдида Бутун Бухоро фавқулодда комиссияси томонидан намойишкорона тарзда отиб ташланади. “Красная звезда” газетасида ёзилишича, отиб ташланганлар орасида Фиждуон ревкомининг раиси Қори Оқил, Фиждуон ЧКнинг раиси Абду Шукур каби БХСР хукуматида маъсул лавозимларда ишлаган миллий раҳбар ходимлар билан биргалиқда ташкилотнинг раиси –Абдураҳмон (амирнинг күёви ва амакиваччаси бўлган), Абдулвоҳидхон (амирнинг амакиваччаси), Мирзо Баҳром (амирнинг собиқ миrzаси) бўлган¹³⁰⁸. Ташкилот фаолияти чекистлар томонидан кейинчалик жиддий текшириб чиқилган. Ташкилотга ёрдам берган Қози Камолиддин ташкилотчилик қилганлиги учун 5 йил муддатга озодликдан маҳрум этилган. Махфий ташкилотнинг бошқа аъзолари ҳам қатағон қилинган.

Хулса, Бухоро худудларида большевиклар ўз ҳокимиyatini ўрнатиш ҳамда уни мустаҳкамлашда ҳарбий, сиёсий репрессияларни авж олдириди. Бунда қатағон сиёsatининг ижрочи органлари Бухоро ЧКлари, ҳудудда ташкилланган “инқилобий” трибуналлар, қизил армия бўлинмалари, Диктаторлик комиссиялари, Давлат сиёсий Бошқармаси ГПУ, ишчи-дехқон милицияси каби жазо муассасалари асосий роль ўйнаганди.

ARXIV HUJJATLARIDA BUXORODAGI YAHUDIY MAKTABLARI FAOLIYATI

*Murodova Dilrabo Shomurodovna
Buxoro Davlat Universiteti
tayanch doktoranti*

Yahudiylar qadimda bo`lgani kabi XX asrning birinchi choragida ham Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarda faol qatnashganlar.

Buxoro yahudiylari boshqa millatlarga qaraganda ko`p farzandli oilalar bo`lishgan. Asosan Buxoroning Mahallayi ko`hna va Mahallayi nav hududlarida o`ziga to`q, badavlat buxoro yahudiylarining hashamatli xonardonlari va uy-joylari joylashgan.

Shu hududdagi yahidiy boylaridan bo`lgan Xay Kalontar uyida 1920 yil amirlik ag`darilganidan so`ng Mahallayi Nav xududida Sallaxona darvozasi yaqinidagi “Qalandarxona” deb nomlangan tepalik yonida yahidiy bolalari uchun Roza Lyuksemburg nomidagi boshlang`ich maktab tashkil etiladi¹³⁰⁹.

1921 yil 19-20 dekabrda bo`lib o`tgani II Umum Buxoro partiyasi qurultoyida BKПning dasturi qabul qilinib, unda BXSR xududida yashovchi barcha millatlarning tengligi, bir xil huquqlarga ega ekanligi, qonun oldida javobgarligi va asosan respublikaning barcha xalqlari maktab ishlarida, adabiyotda va sudda o`z ona tilidan foydalanish huquqiga ega ekanligi e`tirof

¹³⁰⁷ Бухоро ахбори, №95, 1922 йил 12 август.

¹³⁰⁸ Открытие басмаческой организации в Старой Бухаре // Красная звезда, №21, 3 августа 1922 г.

¹³⁰⁹ Buxoro viloyat davlat arxivisi. 43-fond, 1-ro`yxat, 16-yig`majild, 20-varaq. ¹⁵¹¹ История Бухарской Республики (1920 – 1924 гг.). Сб. док. Сост.: М.А. Алимов и др. «Фан», Т. ,1976, с. 112.

etiladi¹⁵¹¹. Ko`p millatli Buxoro respublikasidagi barcha millatlar qatorida yahudiylar ham maorif sohasida o`z ona tillarida ta`lim-tarbiya olish huquqiga ega bo`ladilar.

1922 yil 12 yanvar holatida respublikada faoliyat yuritayotgan 70 ga yaqin ta`lim muassasalari orasida Eski Buxoroda yahudiy tilida ta`lim olib boriladigan maktablar 2 ta, Yangi Buxoroda esa yahudiylar uchun 1 ta maktab-internati mavjudligi arxiv hujjatlarida qayd etib o`tilgan¹³¹⁰. Yahudiy bolalari uchun maktablar ochish maqsadida Maorif Nozirligi va pedagogik kengash qarori bilan shahar xalq maorif bo`limi tomonidan yaroqsiz binolar tanlab olingan¹³¹¹. 1927 yil 30 yanvarida Buxoroda faoliyat yuritayotgan yahudiy xotin-qizlari kurslarining 30 nafar talabasi tomonidan Zarafshon viloyati Maorif bo`limi va viloyat ayollar bo`limiga yo`llangan arizada ta`lim muammolari bilan bog`liq holat bo`yicha jarayonni ko`rish mumkin¹³¹². Hujjatda bayon etilishicha, 1926 yil avgust oyida mahalliy yahudiylarning "Madad" jamiyati tomonidan Eski Buxoroda savodsizlikni bartaraf etish maqsadida ona-tili, arifmetika va rus tilini o`rganish uchun 30 nafar yahudiy ayollar uchun maktab ochiladi.

XX asrning 20-yillarida Buxoroda yangi tashkil qilinayotgan sovet maktablari uchun pedagog kadrlar tayyorlash masalasiga katta e`tibor qaratildi. Xududda istiqomat qilayotgan barcha millatlar qatorida yahudiylar madaniy muhitini yuksaltirish va savodxonlik darajasini ko`tarish maqsadida tavsiya etilayotgan nomzodlar orasida buxoro yahudiylariga tayyorlov guruhlarida ta`lim olishlari uchun imkon berildi. 1929 yilda Toshkentdagи mahalliy yahudiylar pedagogika texnikumida o`qish uchun Buxorodan 5 nafar nomzod so`ralganligi ham hujjatlarda aks etgan¹³¹³. 1926-1928 yillarda Buxoro shahrida aholi uchun jami 21 ta birinchi darajali quyidagi maktablar faoliyat yiritgan: 12 ta o`zbek maktablari(57%), 3 ta tojik maktabi (14%), 5 ta yahudiylar maktabi (24%), 1 ta eron-ozarbayjon maktabi (5%) mavjud bo`lgan¹⁵¹⁶. Eski mahallada Lunacharskiy (Biyak) nomidagi 3 sinflik, mahallayi Navda Roza Lyuksemburg, Manu, Frunze, Rushnoi nomidagi 2 sinfli maktab va uning yonida 5 sinfli xotinqizlar maktabi tashkil etilib, ularda Buxoro yahudiylarining farzandlari ta`lim olishgan edi¹³¹⁴. Asosan Buxoro yahudiylari yashaydigan Yangi mahallada № 4 bolalar bog`chasi ham faoliyat yutitganligini hujjatlar tasdiqlaydi¹⁵¹⁸.

XX asrning 30-yillari boshlaridagi stalincha qatag`on davrida 1000 ga yaqin Buxoro yahudiylari hibsga olingan, sinagogalar, yahudiy maktablari, teatr, muzey va gazetalar yopilgan¹³¹⁵.

Hozirgi kunda Buxoro shahridagi 36-son ingliz va yahudiy tillariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta`lim maktabida yahudiy bolalari ta`lim-tarbiya olishmoqda¹³¹⁶. Bu muassasa Buxoro shahar hokimining 1994 yil 3 noyabrdagi №1185 qaroriga binoan tashkil qilinadi.

¹³¹⁰ O`zMA, P-48- fond, 1-ro`yxat, 45-yig`majild, 24-varaq.

¹³¹¹ Buxoro viloyat davlat arxiv. 548-fond, 1-ro`yxat, 5-yig`majild, 29-varaq.

¹³¹² Buxoro viloyat davlat arxiv. 546-fond, 1-ro`yxat, 64-yig`majild,138-varaq.

¹³¹³ Buxoro viloyat davlat arxiv. 43-fond, 1-ro`yxat, 169-yig`majild,112-varaq. ¹⁵¹⁶ Buxoro viloyat davlat arxiv. 37-fond, 1-ro`yxat, 42-yig`majild,31-varaq.

¹³¹⁴ Buxoro viloyat davlat arxiv. 162-fond, 1-ro`yxat, 193-yig`majild,31-varaq. ¹⁵¹⁸ Buxoro viloyat davlat arxiv. 37-fond, 1-ro`yxat, 42-yig`majild,55-varaq.

¹³¹⁵ Ўзбекистон миллий энциклопедияси.2 жилд. - Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001.306-бет.

¹³¹⁶ Р.Альмеев.История регистрации и деятельности в г.Бухаре второй общины и синагоги Бухарских евреев (1989-1999).Бухара.2001. С.18.

Ta'lim muassasining asoschilari asosan Yahudiylar diniy jamiyat, Buxoro shahar xalq ta'limi bo`limi va Buxoro shahar fuqarolari Babayev Boris hamda Tamayev Romanlar bo`lishgan. G'oya tashabbuskori Buxoro shahar ravvini (yahudiylar imomi) Abramov Isxak bo`lgan. Maktabga Iyerusalimdag "Midrash Sfaradi" tashkiloti direktori Shlomo Katsina va Tuvii Kilya rahbarligida katta moliyaviy yordam berib kelingan. Ushbu tashkilot maktabga ibroney tili, an'analari va din tarixini o'rgatish uchun muntazam ravishda o'qituvchilarni bepul yuborgan. Tashkilotning Buxorodagi vakili Natan Elnatan tomonidan maktabdagi ta`limtarbiya jarayonini yaxshilash maqsadida yordam berib kelingan. Maktabni tashkil etishdan maqsad, umumta`lim fanlarini o'rganish bilan bir qatorda, yahudiy Isroil xalqining ibroney tili, an'analari, madaniyati va tarixini o'rganishdir. 1994-1995 o`quv yilida 5-9 sinflarda jami 141 nafar o`quvchi tahsil olgan. 1995 yil may oyida maktab o`zing ilk bituruvchilarini kuzatib qo`ydi. 1996 yil 1 yanvar holatida esa 1-9 sinflarda jami 200 nafar o`quvchi tahsil olgan. Maktabga doimiy ravishda Isroil elchilari va konsullar tashrif buyurisgan. Jumladan, Isroil elchisi Mish Gets, elchi o`ribbosari Mixail Bar, 1995 mayda Isroilning O'zbekistondagi elchixonasi birinchi kotibi Lavi Segol, Isroil Xalq Ta`limi Vazirligi vakillari va rasmiy doiralarning tashriflari bo`lib o`tgan¹³¹⁷.

1997 yilning 9-12 mart kunlari Amerikaning yirik yahudiy tashkilotlari prezidentlari, siyosatchilar va jamoatchilik vakillarining O'zbekistonga tashrifi doirasida ham Toshkent, Samarqand va Buxorodagi tadbirlar chog`ida ushbu delegatsiya a`zolarining maktabga tashrifi bo`lib o`tgan¹³¹⁸.

2018 yilning fevralida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taklifiga binoan Buxoroga tashrif buyurgan Tojikiston Respublikasi Bosh prokurori Raxmon Yusuf Axmazdod boshchiligidagi delegatsiya a`zolari ham shaharning Labi hovuz majmuasi yonida joylashgan to`rt yuz yillik tarixga ega bo`lgan Markaziy Osiyodagi eng qadimiy sinagoga tashrifi chog`ida Buxoro shahridagi yahudiylar jamiyati raisi Abramov Isxakov bilan uchrashadi. Sinagoganing yonida tarixiy an'anaga ko`ra faoliyat yuritayotgan Markaziy Osiyodagi yagona yahudiylar maktabiga ham tashrif buyurib, muassasaga 20 dona kompyuter sovg'a qilingan¹⁵²³.

Hozirgi kunda Buxoro shahar Xalq ta`limi bo`limiga qarashli 36 - Ingliz va yahudiy tillariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta`lim maktabi Eski shahardagi Jalol Ikromiy mahallasi, Sarrofon ko`chasidagi Yunesko ro`yxatiga madaniy meros sifatida kiritilgan 20 uyda joylashgan bo`lib, o`ziga xos tarixiy ko`rinishga egadir. Maktab binosi 2 ta hovlidan iborat bo`lib, birinchi binoda 180 nafar boshlang`ich sinf o`quvchilari tahsil oladi, shu bilan birgalikda maktab ma`muriyati ham shu qismda joylashgan. Maktabning ikkinchi binosida esa 310 nafar yuqori sinf bolalari tahsil olishadi. Bu binoda yerto`la ham mavjud bo`lib, ta`lim maqsadlari uchun foydalanimoqda.

Shu mahallada yashab kelgan Buxoro yahudiylarining aytishicha, bu binolarda sud idorasi, kechki maktab va shahar xalq ta`limi bo`limlari faoliyat yuritganligi, keyinchalik esa bu joy yahudiy boylari tomonidan turar joy sifatida foydalanish uchun sotib olinganligini xotirlaydi. Buxoro Yahudiylarning urf-odat va an`analarini davom ettirgan holda ta`lim jarayoni besh kunlik tartibda tashkil etilgan bo`lib, shanba kuni dam olish kuni hisoblanadi. Chunki, bu kuni yahudiylarda Shabbat bayrami nishonlanadi. Ibroniychadan tarjima qilingan - Shabbat (ibroniycha sh bş) - "dam olish, faoliyatni to'xtatish, ishdan dam olish, tiyilish" degan ma'noni anglatadi. Shabbat bayramdir, Shabbatni kutib olish yahudiy xalqining qadimiy tarixidan kelib

¹³¹⁷ Из летописи школьной жизни. 1996 г.С.1.

¹³¹⁸ Бухарская известия.// 1997 г.12. 03. ¹⁵²³ The Bukharian Times.// 2018 № 837.

chiqqan azaliy an'anadir. Buxoro yahudiylari ham ota-bobolaridan qolgan azaliy meros sifatida ushbu an'anani davom ettirishmoqda.

Respublikadagi boshqa umumta'lim mакtabalaridan farqli o'larоq, noan'anaviy tarzda bu ta'lim maskanida haftalik darslar bevosita yakshanba kunidan boshlanib, umumta'lim fanlaridan tashqari yahudiylarning tarixi, san'at va milliy madaniyati, diniy marosimlariga doir bilimlar bilan tanishtiriladi. Ayni paytda maktabda 491 nafar o'quvchi tahsil oladi, shundan 15 tasi yahudiy bolalari bo'lib hisoblanishadi. O'qituvchilar jamoasi 33 kishini tashkil etib, shulardan 3 nafar ayollar yahudiy millatiga mansubdir. Boshqa umumta'lim mакtabalaridan farqli o'larоq, bu muassasa ko'p millatlа bo'lib, asosan, mahalliy o'zbek, tojik, yahudiy, rus, tatar va kavkaz lezgin bolalari tahsil olishadi.

BXSR VA SOVET DAVRIDA BUXORODA TA'LIM VA FANNING RIVOJLANISHI

Ibraimov Xolboy

T.N.Qori Niyoziy nomidagi

O'zbekiston pedagogika fanlari

ilmiy tadqiqot institutui direktori p.f.d., professor

Bizga ma'lumki barcha davrlarda ham madaniy va ma'naviy hayotda yangi g'oyalarga ehtiyojning yuqori bo'lganligi bilan birga ta'lim tizimida olib borilgan islohotlarning ta'siri ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda davlatamiz rahbarining quydagi fikrlarini keltirib o'tmoqchiman, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev[1;58-b.] "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri S.Doniyorovning bergen savollariga javob berar ekan: shunday deydi, "ishonchim komilki, farzandlari doimo izlanish va intilishda bo'lgan, yuksak marralarni ko'zlab, oldinga qarab intiladigan xalq va davlat o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga albatta etadi. Chunki bunday harakatlar ertaga qudratli to'lqinga aylanib, hayotimizni bugun kechadigan, ertaga bugungidan yaxshi va obod qilish, ongu tafakkurimizni yuksaltirishga olib keladi" [1;58-b.] deb takidlaganlari ham bejiz emas.

Xususan, XX asr Turkiston ta'lim va fan taraqqiyotida olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadi jamiyat hayotiga ma'naviy-madaniy hayotda yangi g'oyalarning shakllanishi juda zarurligi belgilab olindi. BXSRda XX asr boshlarida xalq ta'limining madaniy-ma'naviy tarbiyaviy siyosatida o'quvchilarga pedagogik ta'lim-tarbiyaviy ta'sir etish yo'llari orqali singdirib borish alohida ahamiyat kasb etadi. BXSRda ta'lim – tizimida ma'naviy-madaniy tarbiyaviy g'oyalarning aks etishida "O'zbek xalq pedagogikasi" tarbiyaviy ta'sir sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

BXSRda olib borilgan xalq ta'limi sohasidagi siyosatning bosh mezaoni, uyg'onish davri pedagog olimlarining qarashlarida o'z aksini topa boshladi. Pedagog olim U.Dolimov[2;226-b.] o'z tadqiqotlari doirasida "Milliy uyg'onish pedagogikasi" masalalaridan Chor Rossiyasining BXSRda mакtab siyosati: rus-tuzem mакtabalarida o'qitish mazmuni takidlar ekan. XIX asrning 50-60-yillardayoq Ahmad Donish Buxoro mакtab va madrasalaridagi o'qish-o'qitish metodlarini tubdan isloq qilish masalasini keskin qo'ygan. Sadreddin Ayniy uni "Buxoroning porloq yulduzi" deb atagan edi. XX asr Turkiston o'lkasida ham milliy uyg'onish shabadalarini kuchaytirdi: o'lkada "Tarjimon", "Mulla Nasriddin", "Xo'p xo'pnoma" gazeta va jurnallarining mushtariylari soni oshib bordi, undagi islohotchilik harakatiga bag'ishlangan maqolalar o'zbek pedagoglarini o'z faoliyatlariga tanqidiy qarashga majbur etdi, ilk usuli jadid mакtablari

Ю.Б. Турсунова	СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ ВА ХОРАЗМ ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ ТАЪЛИМ БОШҚАРУВИГА СИЁСИЙ ТАЪСИРИ	740
Нигматов Алишер Хайруллович	“ИСТОРИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ УЗБЕКИСТАНА: БУХАРСКАЯ КРЕПОСТЬ АРК И ЕЕ ИСТОРИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ”	742
Худоёров Нойиб Марипович	БУХОРОДАН “ҚУЛОҚ” ОИЛАЛАРИНИ КЎЧИРИЛИШИ	746
Жўраев Ҳамза Атоевич	АБДУРАУФ ФИТРАТ ВА ЖАДИД МАДАНИЯТИ	748
Ҳочиев К.М.	ИНЬИКОСИ ҶАНГИ БУЗУРГИ ВАТАНӢ ДАР АСАРҲОИ ПРОФЕССОР МУХТОРОВ А.М.	751
Хошимов С.А.	БХСРда СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЖАЗОЛОВЧИ ИДОРАЛАРИ ТОМОНИДАН АМАЛГА ОШИРИЛГАН СИЁСИЙ ҚАТАГОНЛАР	755
Murodova Dilrabo	ARXIV HUJJATLARIDA BUXORODAGI YAHUDIY MAKTABLARI FAOLIYATI	758
Ibraimov Xolboy	BXSR VA SOVET DAVRIDA BUXORODA TA’LIM VA FANNING RIVOJLANISHI	761
Шамсиева З.А	Н.П.ЛОБАЧЕВА ВА УНИНГ НИКОҲ ТЎЙИ МАСАЛАЛАРИГА ОИД ТАДЌИҚОТЛАРИ	765
Qosimov Qosim Odinayevich	BUXOROLIKLARNING QIZIL ARMIYAGA QARSHI KURASHI	767
Mohinura Misaboyeva	BUXORODA SHO’RO HOKIMIYATINING O’RNATILISHI VA MILLIY-HUDUDIDY CHEGARALANISH	771
Akbayeva Zebiniso	TURKISTON MUSULMONLAR BYUROSI TARIXI	773
Normatov Otabek Maxamatjonovich, Chirchiq davlat pedagogika	BUXORO VA XORAZM RESPUBLIKALARIDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLAR TARIXIDAN	777
Зокиров Бобир	БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИДА СУДЛОВ МУАССАСАЛАРИ ФАОЛИЯТИ	780
Марупов Шерзодбек	ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ АМАЛГА ОШИРГАН “ТОЗАЛАШ” СИЁСАТИНИНГ БУХОРОДА АМАЛГА ОШИРИЛИШИ	782
Beshimov Maqsud	Munzim Buxoriy – Buxorodagi jadidchilik harakatining yirik namoyandası	785
4-ШЎЬБА. МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ВА ХОРИЖДА БУХОРО ТАРИХИ ТАДЌИҚ ЭТИЛИШИ		
Фаррух Темиров	МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА САДРИДДИН АЙНИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИННИНГ ЎРГАНИШДА ЯНГИЧА ЁНДАШУВ	788
Дилиноза Жамолова	МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА БУХОРО ЖАДИДЧИЛИГИ ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИНИНГ ТАДЌИҚ ЭТИЛИШИ	793
Очил Бўриев	БУХОРО ВОҲАСИ АҲОЛИСИ ЭТНОГРАФИЯСИ ТАРИХШУНОСЛИГИ: БАЪЗИ ЧИЗГИЛАР	796
Манзила Қурбонова	БУХОРО ВОҲАСИГА ХОС МАРОСИМИЙ ПАЛОВ	801
B.Boltayev	BUXORO DAVLAT UNIVERSITETIDAGI MUZEYLARNING HAMKORLIK FAOLIYATIDAGI O’RNI.	803